



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

1 МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST
SPECIAL ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2025

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуридиневич
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Раҳбархон Муртазаева ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИНГ ХОРИЖДАГИ ВАТАНДОШЛАР БИЛАН АЛОҚАЛАРИНИ МУСТАҲКАМЛАНИШИ - УМУММИЛЛИЙ ТОТУВЛИКНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ЯНГИ БОСҚИЧИ.....	5
2. Diloram Babajanova AMIR TEMIR VA TEMURIYLAR DAVRINING ЎРГАНИЛИШИ.....	9
3. Eshov B.J. JANUBIY O‘ZBEKISTON JANON TAMADDUNI KONTEKSTIDA.....	16
4. Адолат Раҳманкулова ЭТНОКУЛЬТУРНОЕ МНОГООБРАЗИЕ УЗБЕКИСТАНА.....	22
5. Muborak Matyakubova XVI-XVIII ASRLARDA XIVA XONLIGINING IQTISODIY-MADANIY HAYOTI.....	30
6. Раушан Камалова СОЦИАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ НАРОДНЫХ ТРАДИЦИЙ СОХРАНЕНИЯ ЗДОРОВЬЯ И ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ У КАРАКАЛПАКОВ.....	38
7. Дилором Разикова ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА ЯПОНИИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: КЛЮЧЕВЫЕ ЭТАПЫ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ.....	49
8. Фаррух Разаков УЗБЕКСКАЯ ИСТОРИОГРАФИЯ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ ОСМАНСКОЙ ИМПЕРИИ С ГОСУДАРСТВАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В XVI-XIX ВВ.....	64
9. Iroda Sanginova O‘ZBEKISTONDA AYOLLARNING DAVLAT VA JAMIYAT ISHLARINI BOSHQARISHDAGI ISHTIROKI GENDER TENGLIGINIG ASOSI SIFATIDA.....	71
10. Турдыгул Пирниязова ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ТАРИХИДА ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИДАН КЕЙИНГИ ЙИЛЛАРДАГИ БУЮК ҚУРИЛИШЛАР ХАЛҚ ХОТИРАСИДА.....	76
11. Кямаля Наджафова РОЛЬ АХМЕД БЕКА АГАЕВА И ЕГО ПАРТИИ “ДИФАИ” В БОРЬБЕ ПРОТИВ ДАШНАКСКОГО ТЕРРОРА В КАРАБАХЕ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА.....	81
12. Ибрагимжан Ташматов ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ И НАЦИОНАЛЬНОГО СОСТАВА СЕМЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	90
13. Shaxnoza Tasheva QASHQADARYODA MILLIY TIKLANISH DAVRIDA MADANIY MEROSNI ASRASH VA RIVOJLANTIRISH: (1991-2016YY).....	96
14. Umarali Shamayev MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXIY-MADANIY MEROS (ARXELOGIYA YODGORLIKLARI)GA BO‘LGAN E‘TIBORNING QONUN VA QONUNOSTI HUIJATLARIDA AKS ETISHI.....	101
15. Mirzabek Xolboyev FARG‘ONA VODIYSI OBLASTLARIDAGI ARXIV MUASSASALARI FAOLIYATI TARIXI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	106



Mirzabek Karimjon o'g'li Xolboyev,
Namangan davlat universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti o'qituvchisi
e-mail: mirzabek7176@gmail.com

FARG'ONA VODIYSI OBLASTLARIDAGI ARXIV MUASSASALARI FAOLIYATI TARIXI: MUAMMO VA YECHIMLAR

For citation: Mirzabek K. Kholboev. HISTORY OF ACTIVITY OF ARCHIVE INSTITUTIONS IN FERGANA VALLEY REGIONS: PROBLEMS AND SOLUTIONS. Look to the past. 2025, Special issue 1, pp.106-113

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15754426>

ANNOTATSIYA

Tarixiy dalillarni o'zida jamlagan arxiv muassasasi Sovet davrida zamonaviy ish uslubiga ega bo'ldi. Mazkur davrda arxiv ishida amalga oshirilgan chora-tadbirlar ahamiyati to'g'risidagi ma'lumotlar, tadqiqotning asosiy mazmunini tashkil etadi. O'zbekiston SSRning arxiv hujjatlari 70 yildan ortiq vaqt davomida SSSR siyosiy tizimining asosini tashkil etdi, natijada ushbu jarayon jamiyatni boshqarish vositasi bo'lib hizmat qildi. O'z navbatida, boshqaruv tizimidagi o'zgarishlar muqarrar ravishda ittifoq hududidagi arxiv ishining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan. Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada O'zbekistonda SSRda arxivlar tashkil topishi, farg'ona vodiysi arxivlari ularning faoliyatidagi o'zgarishlarni aniqlash maqsad qilib olingan.

Kalit so'zlar: arxiv, Farg'ona viloyati davlat arxivi, Andijon viloyati davlat arxivi, Namangan viloyati davlat arxivi, tuman arxivlari, fond, arxiv boshqarmasi, SSSR Markaziy arxiv Boshqarmasi.

Мирзабек Каримжон угли Холбоев,
Наманганский государственный университет
Преподаватель факультета социальных наук
e-mail: mirzabek7176@gmail.com

ИСТОРИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АРХИВНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В РЕГИОНАХ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

Архивное учреждение, хранящее исторические свидетельства, в советское время приобрело современные методы работы. Основное содержание исследования составляют сведения о значении мероприятий, проведенных в архивном деле в этот период. Архивные документы Узбекской ССР более 70 лет составляли основу политической системы СССР, в результате чего этот процесс служил средством управления обществом. В свою очередь, изменения в системе управления неизбежно отразились на развитии архивного дела в Союзе.

С этой точки зрения данная статья ставит своей целью выявить изменения в формировании архивов Узбекской ССР и архивов Ферганской долины в их деятельности.

Ключевые слова: архив, государственный архив Ферганской области, государственный архив Андижанской области, государственный архив Наманганской области, районные архивы, фонд, архивный отдел, Центральное Архивное Управление СССР.

Mirzabek K. Kholboev,
Namangan State University
Teacher of the Faculty of Social Sciences
e-mail: mirzabek7176@gmail.com

HISTORY OF ACTIVITY OF ARCHIVE INSTITUTIONS IN FERGANA VALLEY REGIONS: PROBLEMS AND SOLUTIONS

ABSTRACT

The archival institution, which stores historical evidence, acquired a modern working method during the Soviet era. Information on the significance of the measures taken in archival work during this period constitutes the main content of the research. Archival documents of the Uzbek SSR formed the basis of the political system of the USSR for more than 70 years, as a result of which this process served as a means of governing society. In turn, changes in the management system inevitably affected the development of archival work in the Union. From this point of view, this article aims to identify the changes in the formation of archives in the Uzbek SSR and the archives of the Fergana Valley in their activities.

Index Terms: archive, state archive of Fergana region, state archive of Andijan region, state archive of Namangan region, regional archive, fund, archive administration, central archive administration of the USSR.

1. Dolzarbligi:

Bugungi kunda barcha sohalar qatorida arxivlar o'z o'rniga ega va ahamiyatli muassasa. Rivojlangan mamlakatlar arxiv sohasini XIX asrning boshidayoq zamonaviy ko'inishga keltirish, shakllantirish va isloh etish uchun qadam tashlaganlar, shu boisdan ularning bugungi arxivlarida barcha ishlar tizimlashtirilgan. O'zbekiston ham istiqloq sharofati bilan bu sohada erkin faoliyat olib borishga erishdi. Davlatimiz rahbari aytganidek, har bir suveren davlat o'zining betakror tarixi va madaniyatiga egadir. Bu tarix, bu madaniyatning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi esa haqli ravishda shu mamlakat xalqi hisoblanadi [1, B. 5]. Uni asrab avaylash ham shu xalqning zimmasidir. Tadqiqotning dolzarbligi sovet davrida arxiv ishi sohasida erishilgan yutuq va kamchiliklarni aniqlash orqali undan xulosa chiqarish hamda tarixning tilsiz guvoxlarini yanada yaxshi saqlovini ta'minlanishini ko'rsatib berishdan iborat.

2. Metodlar:

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, unda sovet davrida arxiv ishi sohasida erishilgan yutuq va kamchiliklar mohiyati yoritilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

Turkiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (MIQ) Sovetining 1920 yil 29 maydagi 301-sonli "Arxiv ishini tashkil etish va markazlashtirish haqidagi Dekret"ga muvofiq, Arxiv ishi bo'yicha Markaziy Boshqarmaning Farg'ona viloyati bo'yicha Boshqarmasi tashkil etilgan. Bir yil davomida – 1920 yil martidan 1921 yil martigacha Turkiy respublikaning Farg'ona (K.Genkuzen), Samarqand (Porolev), Kaspiy orti (Zakaspiy S.I.Belkevich) viloyatlarida viloyat davlat arxivlari tashkil etildi. E'tiborlisi, mashhur arxeolog B.L.Vyatkin Samarqand davlat arxiv fondiga ilmiy xodim etib tayinlangan [3, S. 31]. Shahar ijroiya qo'mitasi huzuridagi arxiv ishi ijroiya qo'mitasi zimmasida bo'lishi kerakligi belgilangan. Bundan tashqari, MIQ ning 1922 yil 16 maydagi 61-sonli farmoni bilan belgilangan muassasalarning eski yillardagi hujjatlari Farg'ona shahridagi Davlat

arxiv fondiga topshirilishi shart edi. Mahalliy arxiv muassasalari Turkiston XKK ning 1921 yil 25 yanvardagi qarorining 5-bandiga asosan, muassasa hisobidan chiqarilib, “Viloyat arxiv fondlari to‘g‘risida”gi qarorida qonuniy ro‘yxatdan o‘tgan [3, S. 32]. Markaziy arxiv ishi boshqarmasi muassasalardagi eski hujjatlarning xavfsizligi uchun javobgarlikni asosan hududiy arxivlarga yuklashini qayd etgan. Yani, hujjatlarni bir joyda to‘plash ishlari boshlangan davr edi. O‘zbekiston SSRning tashkil topishi barcha sohada o‘zgarishlar va yangi tuzilmalar tashkil etilishiga olib keldi.

1925 yil O‘zbekiston SSRda arxiv ishi tashkil etilishi bilan ahamiyatli bo‘ldi. Xususan, shu qatori eng muhim sohalardan biri arxiv ishlarini tashkil etish masalasi ham qayta ko‘rib chiqildi. 1925 yil 22 iyulda O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi va Xalq Komissarlari Soveti “Respublika Markaziy Arxiv boshqarmasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qaror qabul qildi. Shundan so‘ng, arxiv boshqarmasining tuzilmasi o‘zgartirildi. Jumladan, ushbu farmonga muvofiq, O‘zbekiston SSR “Respublika arxiv ishi markaziy boshqarmasi” va uning huzurida Bosh mudir huzuridagi Kengash, kotibiyat, tashkiliy-inspektorlik bo‘limi, tahririyat yig‘ilishi, davlat arxiv fondi bo‘limlari bo‘ysundirildi va viloyat arxiv fondlari (viloyat arxiv byurolari) tuzildi [2, C. 76]. Respublika markaziy arxivi boshqarmasi faoliyati, Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining smetasi bilan, viloyat arxiv fondlari boshqarmasi esa viloyat ijroiya qo‘mitalari smetasiga ko‘ra moliyalashtirilishi belgilab berilgan.

1925 yilning oxirida “Viloyat arxiv fondlari to‘g‘risidagi Nizom”ga ko‘ra Farg‘ona, Samarqand, Toshkent, Zarafshon, 1926 yilning boshida esa Xorazm, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida arxiv byurolari tashkil etildi. Keyinchalik viloyatlarni tumanlarga aylantirish bilan bog‘liq holda, viloyat arxiv byurolari tuman deb o‘zgartirildi. 1925 yilda Andijon okrugi arxiv byurosi deb, 1927 yilda Andijon okrugi arxiv boshqarmasi deb nomlangan va 1940 yilda ushbu arxivlar bazasi asosida Andijon oblasti davlat arxivi tashkil etilgan [5, B. 42]. Bir viloyat negizida ikkita, ya‘ni Farg‘ona va Andijon tumanlari tashkil etilgan holda, O‘zSSR Markaziy qo‘mitasining 1927 yil 6 apreldagi qarori bilan arxiv fondlarining ajralmasligini ta‘minlash uchun hududlararo arxiv byurosi tashkil etildi [2, C. 67]. 1938 yilda Farg‘ona viloyati tashkil etilgach, bu yerda hududiy arxiv boshqarmasi tuzildi. Ushbu arxiv boshqarmasi 1940 yildan boshlab Farg‘ona viloyati davlat arxivi deb qayta nomlandi [4, B. 131]. Asosiy masala arxiv uchun bino bilan ta‘minlash bo‘lgan. Huddi shu maqsadda Farg‘ona oblasti arxiv ishi boshqarmasi Vaqf Bosh boshqarmasi tomonidan yuborilgan iltimosnomani inobatga olib, uning vakiliga tegishli vakolatga ega bo‘lsa, vaqtincha saqlashda bo‘lgan vaqf hujjatlaridan nusxa ko‘chirishga ruxsat berish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi. 1923 yil 19 noyabrda 4180-sonli aloqa xati bilan Bosh arxiv boshqarmasi Farg‘ona okrugi Skobelev (hozirgi Farg‘ona) shahridagi sobiq viloyat hokimiyati binolarini hech qanday harbiy qismlar va muassasalar bilan egallamaslik, balki Farg‘ona Revkom va Ijroiya qo‘mitasining mandatiga ega bo‘lgan vakolatli Bosh arxiv boshqarmasini to‘liq ixtiyorida qoldirishni so‘ragan. Hozirgi vaqtda binoning bir qismini brigada kurslari egallab turibdi, ular Bosh arxiv boshqarmasining iltimosiga binoan binolarni bo‘shatish kerakligi haqida ogohlantirilishi kerak, chunki binolarning etishmasligi Bosh arxiv boshqarmasini barcha arxiv materiallarini bir joyga jamlash imkoniyatidan mahrum qiladi [8]. Farg‘onada oblastida XX asr 20-yillari dastlabki arxiv organlari joriy etilgan paytda bino muammosini bartaraf etilgan. Bu orqali tizimli ish tashkil etib, boshqaruvni yanada mustahkamlash edi.

1935 yil 21 dekabrda O‘zbekiston SSR MIQ majlisida “1936 yilda Respublikaning barcha hududlarida shahar sovetlari huzurida shahar arxivlarini tashkil etish to‘g‘risida” qaror qabul qilingan edi. O‘zSSR MIQ ning ushbu qaroriga muvofiq, Namangan shahar kengashi 1936 yil 19 apreldagi majlisida “Shahar arxivini tashkil etish to‘g‘risida”gi masalani ko‘rib chiqdi. Natijada, Namangan shahar arxivi tashkil etilib, dastlab uning tarkibi bir rahbardan iborat bo‘ldi [17]. Arxiv tashkil etilgan paytda alohida bino ajratilmagan, xodimlar bilan ta‘minlanmagan, o‘sha vaqtda asosiy masala ham aynan bino va kadrlar masalasi edi. Ammo, muammolarga qaramay arxiv ishini joriy etish izchil davom etgan. Bunga yaqqol misol sifatida Farg‘ona viloyati davlat arxivi 4-fondga saqlanayotgan ma‘lumotlarga ko‘ra, vodiydagi shahar va tuman arxivlari quyidagicha bo‘lgan [9]:

1-jadval

arxiv	hududi	tashkil etilgan yili	arxiv direktori	maosh
-------	--------	----------------------	-----------------	-------

nomi			
Bekobod tumani	1914 iyul	Kireeva Lidiya Semenovna	150 rubl
Kirov	1920 may	Salixova Halima Xafizoviy	112 rubl
Qo'g'on	1921 may	To'ychiev Abdulgay	150 rubl
Qo'qon tumani	1922 may	Yo'ldoshev Raxmon	130 rubl
Qo'qon shahri	1922 may	Soroka Vasily Andreevich	225 rubl
Lenin tumani	1923 may	Musaxonov Isaxon	175 rubl
Andijon	1924 may	Qosimov Nabi	240 rubl
Andijon shahar	1924 may	Pudovkina Yadviga Aleksandr	275 rubl
Namangan	1926 may	Karimov Ibrohim	250 rubl
Namangan tumani	1926 may	Mamajanov Yusupjon	240 rubl
To'raqo'rg'on	1928 may	Abdulina Djavgar SHaripovna	130 rubl
Uychi tumani	1929 may	Umrzoqov Anvar	130 rubl
Marg'ilon shahar	1916 iyun	Yo'ldosh Hamidov	225 rubl
Marg'ilon tumani	1916 iyun	Yo'ldosh Hamidov (buham)	225 rubl
Toshloq tumani	1915 iyun	Tillaboev	112 rubl
Molotov	1916 iyun	Ibragimov	130 rubl
Bag'dod tumani	1918 iyun	Norbat Kurbatov	200 rubl
Kuybishev (Rishton)	1919 iyul	Qurbonova Oisha	125 rubl
Oltariq tumani	1920 iyul	Zairov Raxmonqul	150 rubl
Voroshilov	1925 iyul	Azizova Natalya Ivanovna	200 rubl
Jalolquduq tumani	1927 iyul	Dobromiller-Renda Aleksan	250 rubl
Stalin tumani	1925 iyul	Hamidov Abdulla	130 rubl

Yuqoridagi ro'yxat 1937 yildagi ma'lumotga tegishli bo'lib aholisi gavjum bo'lgan va boshqaruv organlariga ega hududlarda arxiv muassasalari tashkil etilganligini ko'rishimiz mumkin. Lekin bu davrga kelib ham yuqoridagi keltirilgan arxivlarning ayrimlarida bino va honalar yo'qligi asosiy muammolardan bo'lgan. Ayrim tadqiqotlarda yuqoridagi hududlarda arxivlar tashkil topishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan bo'lsada, ular asosan davlat arxivi sifatida ish boshlashi bilan bog'liq holda ko'rsatilgan.

1940 yildan boshlab Farg'ona viloyati UNKVD arxiv bo'limi tashkil etildi, so'ngra ushbu boshqarma davlat arxiviga aylantirildi. 1946 yilda ushbu muassasa UNKVD Farg'ona viloyati bo'yicha arxiv bo'limi, 1957 yildan esa Farg'ona oblispolkom UVD arxiv bo'limi nomi ostida faoliyat yuritdi [6, B. 433]. Arxiv ishi ichki ishlar tizimiga o'tkazilganligi bois ko'pgina ishlar tartibli tarzda olib borildi. Biroq, shu bilan bir qatorda hujjatlardan foydanlanish, ilmiy tadqiqot ishlarida o'zgarish sezilmadi.

O'zSSR Oliy Soveti tashkiliy qo'mitasining 1941 yil 24 apreldagi qaroriga asosan, UNKVD ning arxiv boshqarmasi va shahar davlat arxivi tasarrufida Andijon viloyati ichki ishlar boshqarmasi arxivining shtatlar jadvali tasdiqlandi. Davlat arxiv faoliyatining dastlabki yillarida shtatlar jadvali asosida 8 nafar rahbar va xodimlar faoliyat olib borgan [6, B. 88]. Vodiy arxivlarining barchasida bir qancha to'planib yotgan muammo va kamchiliklar sohani rivojlantirish uchun to'siq bo'layotgan edi. Ana shunday muammolardan eng asosiysi, arxiv muassasasi uchun binoning yo'qligi edi. Arxiv saqlovxonalarini uchun tashlandiq va xaroba xonalar ajratilgan, natijada, mazkur binolar arxiv hujjatlarini sifatli saqlanishi hamda ulardan foydalanilishi talab darajasida yuritilmagan. Arxiv muassasasi joydan-joyga ko'chirilavergan, arxiv xodimlari qiyin sharoitlarda mehnat qilganlar, sarsongarchilik muhitida ishlaganlar. Qog'oz shaklidagi hujjatlarning umri qisqarib borib, sifatsiz

holiga kelishi oqibatida ulardan foydalanishda qiyinchilik tug'dirgan. Arxiv hujjatlarini qayta ishlash ishlari deyarli yurgizilmagan. Korxonalar va tashkilotlar, hatto davlat idoralarining arxiv hujjatlari binolarning erto'lalarida, zax joylarda saqlangan. Ularni birdaniga bartaraf etishni imkoni bo'lmagan, uning uchun yuqori malakali kadrlar va yaxshigina moliyaviy resurs shart bo'lgan.

Andijon viloyati davlat arxivining o'tgan XX asr o'rtalaridagi faoliyatiga oid arxiv hujjatlari bo'yicha berilgan hisobotlarda quyidagi ma'lumotlar keltiriladi: Viloyat arxivi 1941 yilning may oyida ham Andijon uezdining Eski shahar qismidagi masjid binosida faoliyatini davom ettirayotgani, arxiv uchun alohida bino ajratilmagani soha rivojiga to'sqinlik qilgan. Uch xonadan iborat saqlovxonalarining poli tuproqli yerdan (bu esa zaxkashlikning yuqori bo'lishiga sabab bo'ladi), bitta xonasidagina g'isht yotqizilgan, tom qismi qamishli bo'yra, qisman yog'och faneradan iborat. Saqlovxonalarining eshik va derazalari taxtadan yasalgan omonatgina o'rnatilgan, temir panjaralari esa umuman bo'lmagan. SHuningdek, arxiv bino xonalarining umumiy maydoni 114,24 kv.metrga teng bo'lgan. Hujjatlar qo'yilgan yog'och stellajlarning umumiy uzunligi 37,16 pagon metr, hujjatlarning joylanish miqdori 30 foizni tashkil etgan. Barcha tashkilotlar o'z idoralarida hujjatlarni saqlashga majbur bo'lgan.

O'zSSR Oliy Sovetining Namangan viloyati bo'yicha tashkiliy qo'mitasining 1941 yil 5 noyabrdagi 158-sonli O'zSSR Namangan viloyati xalq komissariyatining ichki ishlar boshqarmasi tarkibida davlat arxivi bo'linmasi tashkil etildi. O'zSSR Oliy Sovetining Namangan viloyat bo'yicha tashkiliy qo'mitasining 1942 yil 18 apreldagi 154-sonli qaroriga asosan, 1942–1944-yillar davomida Kosonsoy, Norin, Namangan, To'raqo'rg'on, Uychi, Uchqo'rg'on, Pop va Yangiqo'rg'on tumanlarida davlat arxivlari tashkil etildi [6, B. 258]. Natijada, urushning eng avji pallasida ham arxiv ishida to'xtalishlar bo'lmadi. Hujjat ishi yo'lga qo'yildi. Shuningdek, arxiv xodimlari sohani rivojlantirish uchun bor kuchlarini ishga solishga harakat qildi.

Sovet tarix fanlari, iqtisodiy va harbiy maqsadlari uchun hujjatlarlarning saqlanishi muhimligini hisobga olgan holda oldiga yangi maqsad qo'yadi, unga ko'ra: O'z SSR Xalq komissarlari Kengashining 1943 yil 18 fevraldagi 145-sonli qaroriga muvofiq davlat arxivlari tarmog'ini tashkil etish choralarini ko'rish va ularni qobiliyatli mutaxassis xodimlar bilan ta'minlash; 1943 yil SSSR NKVD qaroriga asoslanib, hujjatli materiallarni davlat arxivlariga jamlash bo'yicha ishlarni kengaytirish; NKVDning 1942 yil 28 iyuldagi 300-sonli farmoniga amal qilgan holda hujjatli materiallarning nobud bo'lishi, yo'q qilinishi yoki buzilishida aybdor shaxslarni sud javobgarligiga tortishni ko'zda tutgan. SSSR NKVD ko'rsatmasiga muvofiq, arxiv ishini tashkil etish va undan foydalanishda viloyat bo'limlari hamda tuman davlat arxivlari rahbarlariga har tomonlama yordam ko'rsatib, arxiv organlari faoliyati bilan shaxsan har kuni shug'ullanishi belgilandi. Ishning borishi va natijalari to'g'risida har oyning 10-sanasida hisobot berilgan [13]. Urushning eng qizg'in pallasida ham arxiv ishiga e'tibor susaytirilmadi. Bu orqali sohada ijobiy ishlar maqsad qilingan.

1948 yil va 1949 yilning boshida Andijon viloyati Ichki ishlar boshqarmasi arxiv organlari SSSR Ichki Ishlar Ministrligi hamda O'zbekiston SSR IIM Arxiv boshqarmalari ko'rsatmalariga amal qilib, bir qator ijobiy ishlarni amalga oshirdi. Xususan, Ichki Ishlar Ministrligi Andijon viloyati boshqarmasi rahbariyati yordamida viloyat arxiv boshqarmasi tomonidan Xaldivonbek va Oltinko'l tumanlari davlat arxivlari tashkil etildi. 1949 yil 12 aprelda Andijon viloyati arxiv boshqarmasi "Davlat va idoraviy arxivlar holatini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror loyihasini ishlab chiqdi [14].

Andijon viloyati davlat arxivining 1950 yil 1 yanvar xolatiga ko'ra, tuzilgan hisobotida Farg'ona viloyati davlat arxividan 89 ta fondagi 8905 saqlov birligidagi hujjatlar qabul qilinganligi va mazkur hududdan Andijonga 30 ta fondagi 325 saqlov birligidan iborat arxiv hujjatlari qayta ishlanib, qaytarilganligi qayd etilgan.

O'sha davrlarda Andijonda arxiv ishlari ma'lum bir darajada yaxshi tarafga o'zgargan edi. Arxiv hujjatlarining to'liqligi, avvalo, korxonalar, tashkilot va muassasalarning mutasaddi xodimlariga bog'liq ekanligi sezila boshlangan. O'z navbatida, muassasa rahbarlari arxiv ishining rivoji va natijasi uchun mas'ul ekanligi namoyon bo'la boshlagan hamda uni his etib, mehnat qilganlar. Jumladan, I. Boboev 1941 yil 14 maydan boshlab viloyat arxivi rahbari etib tayinlangan bo'lsa,

keyinchalik 1951 yildan A. Statilova, 1953 yildan Vdovina, 1955 yildan Goncharova va T. M. Rozenburg, 1958 yildan esa F. G. Yo'ldasheva ushbu vazifani sidqidildan bajargan.

1952 yilda Ichki ishlar vazirligi Namangan viloyati Arxiv boshqarmasi boshlig'i Karpov hamda IIB viloyat davlat arxivi katta ilmiy xodimi R. N. Zemnichenkodan iborat komissiya tarkibi Namangan viloyati IIB huzuridagi davlat xizmatchilari kasaba uyushmasi mahalliy qo'mitasi raisi Shapiro bilan Namangan va Andijon viloyatlari davlat arxivlari o'rtasida Ichki ishlar vazirligi boshqarmalari arxivlarida o'zaro tekshirish o'tkazilgan. Ushbu tekshiruvda Andijon viloyati IIB Arxiv boshqarmasi boshliqlari, viloyat davlat arxivi boshlig'i M. A. Gombitskaya va Ichki ishlar vazirligi Andijon viloyati davlat arxivi katta texnik xodimi N. G. Torpelova ishtirok etgan edi. Mazkur komissiyaning Andijon viloyati arxiv boshqarmasi va viloyat davlat arxivi tekshirilganda, tegishli majburiyatlar bajarilmaganligi yuzasidan quyidagi kamchiliklar aniqlangan: viloyat davlat arxivi binosini kapital ta'mirlash ishlari tugallanmagan, maxfiy fondlar saqlanadigan ombor rekonstruksiya qilinmagan va foydalanilmagan, buning natijasida maxfiy fondlardagi materiallar umumiy fondlar bilan birgalikda saqlanayotganligi aniqlangan. Viloyat davlat arxivlari hujjatli materiallarni saqlash uchun yaroqli bo'lsa-da, mavjud stellajlar to'liq band, ayrimlari esa buzilgan holatda bo'lgan. Havoning yuqori namligi hujjatli materiallarning shikastlanishiga sabab bo'lganligi aniqlangan [15].

Hududiy o'zgarishlar, yangi shaxar va tumanlar birlashuvi arxiv muassasalarini chetlab o'tmadi. 1960 yil 6 aprelda Namangan oblastidagi davlat arxivini Andijon oblasti davlat arxivi filialiga aylantirish to'g'risida qaror qabul qilindi. Unga ko'ra, O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumining 1960 yil 25 yanvardagi "Namangan oblastini O'zbekiston SSR tarkibidan tugatish to'g'risida"gi Farmoni munosabati bilan Namangan oblast davlat arxivi ilmiy-tadqiqot muassasasi sifatida Andijon oblast davlat arxivining Namangan shahridagi filialiga aylantirish to'g'risida viloyat ijroiya qo'mitasi qaror qabul qilgan [18]. Shu tariqa arxiv organi ham hududiy o'zgarishga muvofiq yangilangan.

Respublika Ministrlar Sovetining 1962 yil 2 iyundagi 403-sonli "O'zbekiston SSRda Arxiv ishini yaxshilash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, mehnatkashlar deputatlari Farg'ona oblast Soveti Ijroiya Qo'mitasining 1962 yildagi 395-sonli "Farg'ona oblastida Arxiv ishini yaxshilash to'g'risida"gi qarori qabul qilinadi. Unga ko'ra:

1) a) Oblast ijroiya qo'mitasi huzuridagi Arxiv boshqarmasi oblast davlat arxivi bilan birlashtiriladi, bundan keyin Farg'ona oblastijroiya qo'mitasi huzuridagi Farg'ona viloyati davlat arxivi deb yuritilishi belgilanadi;

b) Qo'qon tumanlararo arxivi Pop tumani arxivi bilan birlashtiriladi.

2. Hujjatlarni topshirish bilan Kuybishev tumanlararo arxivi tugatiladi, Oltiariq va Kuybishev tumanlari uchun Marg'ilon tumanlararo, Bag'dod tumani hujjatlari Qo'qon tumanlararo arxiviga topshiriladi.

3. Farg'ona, Qo'qon va Marg'ilon shahar ijroiya qo'mitalari tumanlararo arxivlar uchun qo'shimcha binolar ajratib, ularni xonalar bilan ta'minlaydi.

4. Farg'ona viloyati davlat arxivlarining shtatlari 1962 yil uchun arxivlar uchun belgilangan shtatlar va mehnatga haq to'lash fondi doirasida tasdiqlansin.

Viloyat moliya boshqarmasi 1962 yil 1 yanvar holatiga ko'ra tuzilgan ortiqcha inventar qoldiqlari hisobidan viloyat arxivi binosini kapital ta'mirlash uchun 500 rubl miqdorida mablag' ajratishi belgilandi [12].

O'zbekiston SSR Ministlar Soveti KPSS XXII syezdining kommunistik qurilishda fanning roli to'g'risidagi qarorlari nuqtai nazaridan arxiv muassasalarining ahamiyati ortib borayotganini qayd etadi. Shu bilan birga, Respublika davlat arxivlari faoliyatini tashkil etishda jiddiy kamchiliklar mavjudligi aniqlandi. Qoraqalpog'iston ASSR Ministlar Soveti va viloyat ijroiya qo'mitalari huzuridagi, shu bilan birga, kichik tumanlardagi davlat arxivlarida jiddiy muammolar ko'zga tashlandi. Jumladan, muassasa arxivlarini davlat saqlashiga qabul qilish va ularni monitoring qilish masalalari, qimmatli hujjatlarga qayta ishlov berish tartibga solinmagan. Ko'pgina idoraviy arxivlar binolar va malakali kadrlar bilan ta'minlanmaganligi, ularning faoliyati talabga javob

bermasligini hisobga olgan holda Respublikaning bir nechta hududlarida tumanlararo arxivlar tashkil etildi. 1962 yilda Farg‘ona vodiysida quyidagi arxivlarga tashkil etildi:

Andijon oblasti bo‘yicha:

1. Izboskan tumanlararo davlat arxivi:

Izboskan, Norin, Paxtaobod

2. Qo‘rg‘ontepa tumani davlat arxivi:

Jalaquduq, Ilichev, Qo‘rg‘ontepa, Xo‘jaobod.

3. Lenin (Asaka) tumanlararo davlat arxivi:

Lenin (Asaka), Andijon, Oltinko‘l, Marhamat.

4. Shahrixon tumanlararo davlat arxivi:

Shahrixon, Bo‘z, Baliqchi, Moskva, Xaldivonbek, Chinobod.

5. Chust tumanlararo davlat arxivi:

Chust, Kosonsoy, To‘raqo‘rg‘on.

Farg‘ona viloyati bo‘yicha:

1. Qo‘qon tumanlararo davlat arxivi

Bag‘dod, Kirov (Beshariq), Qo‘qon, Leningrad (Uchko‘prik), Pop, O‘zbekiston, Frunze (Dang‘ara).

2. Marg‘ilon tumanlararo davlat arxivi

Oltiariq, Oxunboboev (Qo‘sh tepa), Quva, Quybishev, Marg‘ilon.

3. Farg‘ona shahar-tuman davlat arxivi [11]. Mazkur arxivlarni birlashuvi yirik xajmdagi materiallarni saqlovchi bino talab qilardi. Ayrim hududlarda bunday binolar mavjud, ko‘plarida esa muammoligicha qoldi. Xususan, 1963 yil 23 avgustdagi Farg‘ona shahar Kengashi Ijroiya qo‘mitasi mehnatkashlar deputatlari “Farg‘ona tumanlararo arxivi binolarini kengaytirish to‘g‘risida” qarorida Farg‘ona tumanlararo arxivi binolarini o‘rganish materiallari ko‘rib chiqilgach, hozirda arxiv hujjatlari ombori sifatida band bo‘lgan bino kengaytirishni talab qilishi aniqlandi. Arxiv hujjatlari polda yotibdi. Binolarning etishmasligi sababli Quva tumanidagi qayta tashkil etilgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan hujjatlarni qabul qilish imkoniyati mavjud emas. Farg‘ona tumanlararo arxiv ishida yuzaga kelgan holatlarni hisobga olgan holda Farg‘ona shahar Kengashi Ijroiya qo‘mitasi mehnatkashlar deputatlari quyidagicha Qarorni qabul qildi: “Farg‘ona tumanlararo arxivining ishlashi uchun normal sharoit yaratish maqsadida shahar mudofaa shtabi egallab turgan arxivni foydalanish uchun topshirish (omborxonaga va garaj) belgilandi [10]. Bu orqali birlashtirilgan arxiv materiallari uchun yetarli joy berish bo‘ldi.

Namangan oblastidagi muassasalar arxivlarining holati va ish yuritish hamda arxiv ishini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Namangan viloyati davlat arxivi direktori V. Golsbergning 1972 yil 13 dekabrda quyidagi ishlarni bajarish va arxiv ishini yanada yaxshilash belgilandi.

O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining 1967 yil 18 dekabrda Farmoniga binoan Namangan oblasti qayta tiklangan paytda uning tarkibida viloyat ijroiya qo‘mitasining arxiv bo‘limi, Namangan viloyati davlat arxivi va uning Chust filiali mavjud edi. Ish yuritish va muassasalar arxivlari faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida, 1969 yilda Uychi, 1971 yilda Namangan oblasti davlat arxivining To‘raqo‘rg‘on filiallari tashkil etilgan [16]. Shuningdek, viloyatda arxivlar uchun xonalar faqatgina 220 ta muassasada mavjud edi. Aksariyat muassasalarda hujjatlar shkaflarda saqlangan va tartibsiz holatda 20 mingdan ortiq saqlov birliklari mavjud bo‘lgan. Tashkil etilgan paytdan boshlab: tuman davlat statistika inspeksiyalari, Zadaryo (hozirgi Mingbuloq), Kosonsoy, Chust va Yangiqo‘rg‘on tumanlari sudlari, prokuraturalari, Namangan motor ta‘mirlash zavodi va boshqalarning hujjatlari tartibga solinmagan.

Arxiv ishini ommalashtirish borasida soha xodimlari doimo faol ish olib bordilar. Shulardan, 1984 yilda Farg‘ona oblastida “Farg‘ona oblastida sog‘liqni saqlashning rivojlanish tarixi”, “Markaziy Farg‘ona yerlarini o‘zlashtirish to‘g‘risida”, “Ulug‘ vatan urushi davrida Farg‘ona oblasti” kabi 8 ta hujjatlar ko‘rgazmasi tayyorlandi va taqdim etildi. Andijon oblasti arxivchilari esa radiodan mohirona foydalanib, yil davomida respublika bo‘yicha 146 ta radioeshittirishlar chiqqan bo‘lsa, shundan oblast tarixiga oid yil davomida 40 ta radioeshittirish tayyorlandi [7]. Bu orqali

aholini arxiv ishidagi o'zgarishlardan xabardor qilish hamda, o'lka tarixiga oid turli mavzularda yangilik yetkazishdan iborat bo'lgan. Ikkinchi ijobiy qadam sifatida 80-yillarning ikkinchi yarmida Bosh arxiv tashabbusi bilan: 10 ta ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazilishi edi. Shulardan, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona shaharlari jamoatchiligi bilan uchrashuvlar o'tkazildi [3, S. 146]. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad sohada nazoratni kuchaytirish va hujjatchilik ahamiyatini oshirish bo'lgan.

4. Xulosalar:

Xulosa o'rnida Farg'ona vodiysi tarixini tadqiq etayotgan hozirgi tarixchilar uchun davr talabi sifatida arxiv hujjatlarini chuqur o'rganish muhimligi, ulardagi qimmatli ma'lumotlar boshqa manbalardagi tarixda o'tgan voqea-hodisalarni oydinlashtirish, ularni tushunish va hatto qayta ko'rib, yangi fikr, mulohaza va tasavvurlarga olib kelishi mumkin. Farg'ona oblastida arxiv boshqaruvi organlarining tashkil etilishidagi muammolar va ularni bartaraf etishda erishilgan yutuqlarda qiyinchilar etarlicha bo'ldi. Arxivlarning tashkil topishi va rivojlanishi vodiy viloyatlari ichida ilgariroq amalga oshdi. Bu esa, tashkiliy va boshqaruv jihatidan Andijon va Namangan arxivlarini ham qamrab oldi. Ko'plab tashkilot va korxonalar hujjatlari saqlanishi ta'minlandi. Kerakli mutaxassislar jalb etilib zamonaviy ko'rinishdagi arxivlar qurildi. Ammo, bu bilan arxivlardagi muammolarni bartaraf etilgan yoki tartibga solinishi masalalari bir qancha edi. Ayrim hududlarda arxiv sohasidagi yangiliklarni ortga surish xolati kuzatildi. Kadrlar yetishmovchiligi mavjud edi, yillar davomida ularni bartaraf etib borilgan. Asosiysi o'z davrida yaratilgan hujjatlar saqlovi ta'minlandi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – 56 б.
2. Исакова М. С. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Т.: Университет, 2012. – 204 с.
3. Тилекулов Г. С. Архивное дело в Узбекистане (1918–1980-е гг.): опыт и проблемы: Автореф. дисс...канд.ист.наук. – Ташкент, 1995.
4. Rashidov O. O'zbekistonda arxiv ishi tarixi. O'quv qo'llanma. – Т.: Navro'z, 2019. – 165 б.
5. Жумаев У. Ўзбекистонда архив иши тарихи. – Т.: Турон-Иқбол, 2016. – 188 б.
6. Yusupov U., Aliyev A. O'zbekiston arxivlari. – Toshkent.: Tasvir, 2021. – 496 б.
7. O'zbekiston milliy arxivi. 400-fond. 1-ro'yxat, 3777-ish, 6-varaq.
8. Farg'ona viloyati davlat arxivi. 4-fond. 1-ro'yxat. 15-ish. 58-varaq.
9. Farg'ona viloyati davlat arxivi. 4-fond. 1-ro'yxat. 149-ish. 26-varaq.
10. Farg'ona viloyati davlat arxivi. 8-fond. 6-ro'yxat, 363-ish, 8–134-varaq.
11. Farg'ona viloyati davlat arxivi. 1124-fond. 7-ro'yxat, 1050-ish, 8–10-varaqlar.
12. Farg'ona viloyati davlat arxivi. 1124-fond. 7-ro'yxat, 1087-ish, 76-varaq.
13. Andijon viloyati davlat arxivi. 476-fond, 1-ro'yxat, 5-ish, 9-varaq.
14. Andijon viloyati davlat arxivi. 476-fond, 1-ro'yxat, 15-ish, 13-varaq.
15. Andijon viloyati davlat arxivi. 521-fond, 1-ro'yxat, 47-ish, 1-varaq.
16. Namangan viloyati davlat arxivi, 273-fond, 1-ro'yxat, 193-ish, 1-varaq.
17. Namangan viloyati davlat arxivi. 273-fond, 1-ro'yxat, 360-ish, 10-varaq.
18. Namangan viloyati davlat arxivi. 788-fond, 1-ro'yxat, 2-ish, 4-varaq.

ЎТМИШГА НАЗАР

1 МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST
SPECIAL ISSUE 1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000